

**PROBATSIIYA XIZMATI XODIMLARINING HUQUQ VA
MAJBURIYATLARI HAMDA PROBATSIIYA XIZMATINING
O'ZIGA XOS JIHATLARI**

BURJOQOV ASLBEK ALISHEROVICH
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR
VAZIRLIGI AKADEMIYASI HUQUQBUZARLIKLAR
PROFILAKTIKASI KAFEDRASI
PROBATSIIYA FAOLIYATI KURSANTI

Annotatsiya: Ushbu maqola probatsiya xizmati va uning o'ziga xos jihatlari, probatsiya xizmatidagi asosiy tushunchalar hamda probatsiya xizmatining O'zbekiston Respublikasida hozirgi kundagi rivojlanish tendensiyalari, probatsiya xizmati hodimining qonunchilik bilan belgilab qo'yilgan huquq hamda majburiyatlari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: probatsiya xizmati, probatsiya xizmati hodimlarining huquq va majburiyatlari, jazo, probatsiya nazorati, probatsiya xizmatining o'ziga xos jihati.

So'ngi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlar natijasi o'laroq hozirda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilmoqda. Xususan ular ta'kidlaganlaridek "Hech kimning unutishga haqqi yo'q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat". Bizning mustaqil O'zbekistonimiz "Inson huquqlari – umumjahon deklaratsiyasi"ning to'laqonli a'zosi sifatida inson qadrini ulug'lash, uning huquq va erkinliklarini to'laqonli ta'minlashdek ulug'vor islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabr kuni qabul qilingan "Jinoyat – ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4006-son qarori ozodlikdan maxrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqishga, shartli hukm qilingan va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Hozirda ozodlikdan maxrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish va mahkumlarning huquqlarini ta'minlash izchil davom etmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son farmonida ozodlikdan maxrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etishni ta'minlash, probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ularni ijtimoiy moslashtirish va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish ishlarini tashkil etish vazifasi nazarda tutildi.

Probatsiya-muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash tarzidagi jazolarning ijro etilishini ta'minlashga, mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy va tarbiyaviy ta'sir ko'rastishga, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga barham berishga, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beradigan shart-sharoitlarni aniqlashga, bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

Probatsiyaga oid axborot tizimi-manfaatdor davlat organlari o'rtasida probatsiyani amalga oshirish sohasidagi axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari;

Probatsiya nazorati-muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash tarzidagi jazoga hukm qilingan shaxslarning, shartli hukm qilingan qilingan shaxslarning va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirishga, ularda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini hamda jamiyatda yurish-turishqoidalariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni shakllantirishga, sud tomonidan belgilangan taqiqlarga (cheklovlarga) va majburiyatlarga rioya etilishini ta'minlashga, shuningdek, ularni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga qaratilgan faoliyat;

Boshqa xizmat xodimlarining huquq va majburiyatlari bo'lgani kabi probatsiya xizmati xodimlari ham huquq va majburiyatlariga ega.

Probatsiya xizmati xodimlarining huquqlari quyidagilar:

-probatsiya nazoratidagi shaxslardan probatsiya to'g'risidagi qonunchilikka rioya etishni, g'ayrihuquqiy xatti-xarakatlarni tugatishni talab qilish;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarning shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlarning tekshiruvini amalga oshirish;

-ozodlikni cheklash tarzidagi jazoga hukm qilingan shaxslarni belgilangan cheklovlarga rioya etilayotganligini tekshirish maqsadida shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, ularning ashyolarini, qo'l yukini, bagajini ko'zdan kechirish;

-sud tomonidan o'ziga nisbatan muayyan vaqtda yashash joyida bo'lish majburiyati belgilangan, shuningdek, o'ziga nisbatan tuman (shahar) probatsiya bo'linmasining roziligisiz yashash joyini o'zgartirishga, tegishli ma'muriy hudud doirasidan tashqariga chiqishga doir taqiqlar (cheklovlar) belgilangan probatsiya nazoratidagi shaxslarning mazkur taqiqlarga (cheklovlarga) va majburiyatlarga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida probatsiya nazoratidagi shaxslarning yashash joyini qonunda belgilangan tartibda tekshirishni amalga oshirish;

-tegishli davlat organlarini va tashkilotlarini, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolarni probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishga doir faoliyatga jalb etish;

-o'z vakolatlari doirasida davlat organlariga, boshqa tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga probatsiya to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarini, shuningdek, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida bajarilishi shart bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarning mastlik holatini sertifikatlashtirilgan maxsus texnik vosita yordamida yoki tuman (shahar) davolash-profilaktika muassasalarida ma'sul xodimlar yordamida aniqlash;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatish maqsadida ushbu shaxslarga jamoat tarbiyachilarini (yashash joyi bo'yicha) yoki murabbiylarni (o'qish yoki ish joyi bo'yicha) birlashtirishga doir chora-tadbirlarni ko'rish;

-axloq tuzatish ishlari tarzidagi jazoni o'tayotgan probatsiya nazoratidagi shaxslarning ish joyidan ish haqi, ishlagan kunlari, ish haqidan ushlab qolishlarning miqdorlari to'g'risidagi hisob-kitob ma'lumotnomalarini olish.

Probatsiya xizmati qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Probatsiya xizmati xodimlarining majburiyatlari esa quyidagilar:

-sudning probatsiya nazoratini amlga oshirish bilan bog'liq masalalarga taalluqli so'roviga binoan tegishli axborotni taqdim etish;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarga ularning xulq-atvori ustidan nazoratning amalga oshirilish tartibini, sud tomonidan belgilangan taqiqlarga (cheklovlarga) va majburiyatlarga rioya etilishi shartlarini, shuningdek, mazkur taqiqlarni (cheklovlarni) buzgan yoki ushbu majburiyatlarni bajarmagan taqdirda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy oqibatlarini tushuntirishi;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarning sud tomonidan belgilangan taqiq(cheklov)larga va majburiyatlarga rioya etishini tekshirishi;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish dasturlarini ularning ijtimoiy-psixologik qiyofasini tuzgan holda ijtimoiy moslashtirish dasturlari asosida amalga oshirishi;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarning hisobini probatsiyaga oid axborot tizimiga ma'lumotlarni kiritish orqali yuritishi;

-o'ziga nisbatan jinoyat ishi yopiq sud majlisida ko'rilgan probatsiya nazoratidagi shaxslarning shaxsiy yig'ma jildlarini belgilangan tartibda yuritishi;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarning genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olinishini ta'minlash;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarning sud tomonidan belgilangan taqiqlarga (cheklovlarga) va majburiyatlarga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mazkur shaxslarning uylariga (kvartiralariga) kirilgan barcha hollar

to'g'risida yigirma to'rt soat ichida prokurorni yozma yoki electron shaklda xabardor qilishi;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan sudga jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartliozod qilish haqida, jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish to'g'risida yoxud kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik tufayli jazodan ozod qilish haqida taqdimnomalar kiritishi;

-probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan sud tomonidan belgilangan taqiqlarni (cheklovlarni) va majburiyatlarni to'liq yoki qisman bekor qilish haqida, shuningdek qo'shimcha taqiqlar (cheklovlar) va majburiyatlar belgilash to'g'risida sudga taqdimnomalar kiritishi;

-shartli hukmni bekor qilish yoki jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish haqida yoxud jazoning o'talmagan muddatini og'irroq jazo turiga almashtirish to'g'risida sudga taqdimnomalar kiritishi;

-jazoni o'tab bo'lgan shaxsga ozod qilinganligi to'g'risida ma'lumotnoma taqdimetishi shart.

Probatsiya xizmati qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

Probatsiya xizmatining o'ziga xos jihatlari (normativ-huquqiy asosda):

-O'zbekiston Respublikasida probatsiya xizmati faoliyati bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son qaror hamda 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son farmon probatsiya tizimini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur hujjatlarga ko'ra, probatsiya xizmatining o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

-Birinchidan, probatsiya xizmati faoliyati insonparvarlik va ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslanadi. Ya'ni, jazoni ijro etishda asosiy e'tibor jazolashga emas, balki shaxsni tuzatish va jamiyatga qayta moslashtirishga qaratiladi.

-Ikkinchidan, probatsiya xizmati ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini ta'minlaydi. Bu esa jinoyat sodir etgan shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda nazorat qilish imkonini beradi.

-Uchinchidan, probatsiya faoliyatida individual profilaktika va ijtimoiy-psixologik yondashuv ustuvor hisoblanadi. Har bir shaxs uchun alohida ijtimoiy moslashtirish dasturi ishlab chiqiladi.

-To'rtinchidan, probatsiya xizmati ko'p subyekтли hamkorlik tizimiga ega. Ya'ni, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlaydi.

-Beshinchidan, zamonaviy probatsiya tizimi axborot texnologiyalariga asoslangan nazorat mexanizmlarini qo'llaydi, bu esa nazorat samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari hozirga kundagi probatsiya xizmatining avvalroq faoliyat yuritgan jazoni ijro etish inspeksiyasidan farqini ham o'ziga xos jihatlari sifatida olishimiz mumkin:

Probatsiya xizmati tashkil etilgunga qadar ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosi **jazoni ijro etish inspeksiyalari** tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur ikki tizim o'rtasida quyidagi o'xshash va farqli jihatlari mavjud:

O'xshash jihatlari:

-Har ikkala tizim ham ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar ijrosini ta'minlaydi;

-Nazorat funksiyasi mavjud (mahkumlarning xulq-atvori ustidan);

-Sud qarorlarini ijro etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi;

-Huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan faoliyat olib boradi.

Farqli jihatlari:

1. Faoliyatning mazmuni:

-Jazoni ijro etish inspeksiyasi asosan **nazorat va hisobga olish** funksiyasini bajargan;

-Probatsiya xizmati esa **nazorat bilan birga ijtimoiy moslashtirish va reabilitatsiyani ham amalga oshiradi.**

2. Yondashuv:

-Inspeksiya faoliyati ko'proq **ma'muriy nazoratga yo'naltirilgan;**

-Probatsiya xizmati **individual yondashuv va psixologik ta'sir choralari**ga asoslanadi.

3. Hamkorlik darajasi:

-Inspeksiyada hamkorlik cheklangan bo'lgan;

-Probatsiya xizmatida esa **keng jamoatchilik va tashkilotlar bilan hamkorlik** yo'lga qo'yilgan.

4. Huquqiy asos:

-Inspeksiya faoliyati eski jinoyat-ijroiya tizimi doirasida yuritilgan;

-Probatsiya xizmati esa yuqorida keltirilgan PQ-4006 va PF-27 hujjatlari asosida **zamonaviy tizim sifatida shakllangan.**

5. Maqsad va vazifalar:

-Inspeksiyada asosiy e'tibor jazoni ijro etishga qaratilgan;

-Probatsiyada esa **qayta jinoyatchilikning oldini olish va shaxsni jamiyatga qaytarish** ustuvor hisoblanadi.

Xulosa

Ushbu maqolada probatsiya xizmati va uning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, probatsiya xizmati xodimlarining huquq va majburiyatlari tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasida probatsiya tizimi insonparvarlik va ijtimoiy yo'naltirilganlik

tamoyillariga asoslangan bo‘lib, jazoni ijro etishdan ko‘ra, shaxsni tuzatish, jamiyatga qayta moslashtirish va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan.

Maqolada ko‘rsatilganidek, probatsiya xizmati ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolarni nazorat qiladi, shuningdek, shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va jamiyatga moslashtirish dasturlarini amalga oshiradi. Probatsiya xizmati xodimlari qonunchilik bilan belgilangan huquqlarga ega bo‘lib, ular shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish, ularni ijtimoiy moslashtirish jarayonlariga jalb etish, sud va boshqa davlat organlariga hisobot berish kabi vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, ularning majburiyatlari ham aniq belgilangan bo‘lib, qonun doirasida probatsiya nazoratidagi shaxslarning huquqlarini ta‘minlashga qaratilgan.

Probatsiya xizmati o‘z faoliyatida individual yondashuv, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ko‘p subyektli hamkorlik tizimini qo‘llash orqali samarali ishlaydi. Mazkur tizim avvalgi jazoni ijro etish inspeksiyasi bilan solishtirganda, faqat nazorat va hisobga olish bilan cheklanmay, ijtimoiy rehabilitatsiya va qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishga ham yo‘naltirilgan.

Shunday qilib, probatsiya xizmati O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya tizimida shaxsni ijtimoiy moslashtirish va jinoyatning oldini olishni ta‘minlovchi muhim institut sifatida shakllangan va rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi
5. O‘zbekiston Respublikasining Probatsiya to‘g‘risida qonuni O‘RQ-938, 07.08.2024
6. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining probatsiya faoliyatini tashkil etishga oid buyruqlar va normativ hujjatlar to‘plami, Toshkent, IIV Akademiyasi nashri, 2022
7. Abduqodirov A. Probatsiya faoliyatining nazariy va amaliy asoslari, Toshkent, TDYU nashriyoti, 2021
8. Karimov B. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va probatsiya tizimi, Toshkent, Adolat nashriyoti, 2020
9. Rasulov Sh. Jinoyat-ijroiya tizimida probatsiya xizmati faoliyati, Huquq va burch jurnali, 2022, №3

10.Umaraliyeva D.N. Probatsiya xizmati faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari,
Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi nashri, 2025

